



GLOBAL JARAYONLAR VA BARQAROR TARAQQIYOTNING BUGUNGI KUNDAGI TA'SIRI

Zulfiqorova Aziza Mansur qizi

Yusupova Dilnoza Ilhom qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

XT 4-24 guruh talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada global jarayonlarning mohiyati, ularning rivojlanib borishi, turli sohalarga bo'lgan ta'siri va ularning salbiy va ijobjiy jihatlarini ko'rishimiz mumkin. Globallashuv dunyo miqyosida ro'y berayotgan keng ko'lami iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy, ekologik va madaniy o'zgarishlar bo'lib, bu turli davlatlar va jamiyatlar hayotiga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning asosiy omillari globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, ekologik muammolar, migratsiya kabilar sabab bo'lmoqda.

Kalit so'zlar: Globallashuv, rivojlanish, jamiyat, ekologik muammolar, resurs, iqtisodiyot.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ПРОЦЕССЫ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ

Аннотация: В данной статье мы можем рассмотреть суть глобальных процессов, их развитие, их влияние на различные сферы, а также их негативные и позитивные стороны. Глобализация — это серия масштабных экономических, социальных, политических, экологических и культурных изменений, происходящих во всем мире и оказывающих существенное влияние на жизнь различных стран и обществ. Основными факторами этого являются глобализация, технический прогресс, экологические проблемы и миграция.

Ключевые слова: Глобализация, развитие, общество, экологические проблемы, ресурсы, экономика.

GLOBAL PROCESSES AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT

Annotation: In this article, we can observe the essence of global processes, their development, their impact on various fields, and their positive and negative aspects. Globalization is a large-scale economic, social, political, environmental, and cultural transformation occurring worldwide, significantly influencing the lives of



different countries and societies. The main factors driving this process include globalization, technological progress, environmental issues, and migration, etc.

Keywords: Globalization, development, society, environmental problems, resources, economy.

Kirish. XXI asr tsivilizatsiya tarixida alohida bosqichga aylanadi. Bu asr sayyoramizdagi insoniyatning taqdirini, uning omon qolish imkoniyatini va hayot uchun qulay tabiiy muhitni saqlashni hal qiladi. Oldingi tarix davomida insoniyatning sayyorada davom etishi tabiiy holat deb hisoblangan. Bir qarashda, insonning o'zgaruvchan faoliyati o'z oqibatlarida juda xavfli va insoniyatni halokatga olib kelishi mumkin deb o'ylaganlar kam. Agar jahon hamjamiyati zarur choralarmi ko'rmasa, sayyoraviy miqyosdagi ijtimoiy-ekologik halokat yoki bizning davrimizning boshqa global muammolarining keskinlashuvi bilan bog'liq bo'lgan boshqa falokat yuzaga kelishi mumkin.

Barqaror rivojlanish - bu "kelajak avlodlarning o'z ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga putur etkazmasdan hozirgi kun ehtiyojlarini qondiradigan rivojlanish". Ushbu ta'rif ijtimoiyadolat va xavfsizlik tamoyillarini nafaqat hozirgi, balki kelajak avlodlarga ham qamrab oladi, bugungi kunda ular uchun maqbul ekologik sharoit va zarur tabiiy resurslarni qoldirish kerak.

Adabiyotlar tahlili. Globallashuv – bu xalqaro mehnat taqsimoti, iqtisodiy va siyosiy munosabatlar tizimi orqali bir-biri bilan bog'langan milliy iqtisodiyotlar majmui sifatida tushuniladigan, jahon iqtisodiyoti tarkibini o'zgartirish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Globallashuv butun dunyo bo'y lab iqtisodiyotlar, madaniyatlar va jamiyatlarning o'zaro bog'liqligi va integratsiyalashuvining kuchayishi jarayonini anglatadi. Globallashuvning kelib chiqishi haqidagi qarashlar doimo munozarali bo'lib kelgan. Bunga esa turli sohalardagi mutaxassislar turlicha fikr yuritishadi. Ming yilligimizning oxiriga kelib, insoniyat tarixida dunyodagi hayotni umuman boshqa yo'nalishga burib yuborgan globallashuvni guvohi bo'ldik. "Globalizatsiya"- "gloub (inglizchadan "globe", ya'ni Yer shari), "global" ("global", yani butun dunyoga tegishli) va "globallashuv" ("globalize", yani butun dunyoga tarqalishi) so'zlaridan kelib chiqqan. Globallashuv atamasi dastlab XX asrning 80-yillari boshlarida iqtisodiy sohada sodir bo'lgan o'zgarishlarni yuzaga keltirgan omil sifatida amerikalik olim T.Levittning 1983 yilda "Garvard biznes revyu" jurnalida e'lon qilgan maqolasida qo'llanilgan edi. T.Levitt yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonlarini "globallashuv" deb atagan. Globallashuv - ilm-fan texnika texnalogiya yutuqlari almashuvini tezlashishni hamda davlatlarni ilmiy





texnikaviy taraqqiyotiga ko‘maklashuv bilan tasdiqlanadi. Shuningdek, butunjahon iqtisodiy siyosiy, madaniy integratsiya jarayonidir.

Bugungi kunda boy materiallarni to'plagan, etarli darajada rivojlangan va turli xil maktablar, yo'nalishlar, turli uyushmalar, ijodiy jamoalar, olimlar guruhlari va boshqalar bilan ifodalangan globalistikating holatini aniqlashning dolzARB ehtiyoji mavjud.

Kengroq ma'noda “globalistika” globallashuv jarayonining turli jihatlari va global muammolarning ilmiy, falsafiy, madaniy va amaliy tadqiqotlari, shuningdek, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda erishilgan natijalarni ham alohida davlatlar darajasida, ham xalqaro miqyosda amalga oshirish bo'yicha amaliy faoliyatni anglatadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, globalistikani, qoida tariqasida, ilmiy bilimlarning tabaqalanishi yoki turdosh fanlarning kesishishi natijasida ko'p miqdorda paydo bo'ladi ganlarga o'xshash qandaydir alohida yoki maxsus ilmiy intizom sifatida tushunmaslik kerak. U integratsiya jarayonlari natijasida "tug'ilgan" va turli ilmiy fanlar va falsafa bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan, har biri o'z predmeti va uslubi nuqtai nazaridan globallashuvning barcha mumkin bo'lgan tomonlarini tahlil qiladigan, global muammolarga ma'lum echimlarni taklif qiladigan, ularni bir-biridan ajratilgan holda va yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqadigan tadqiqot va bilim sohasidir.

Globallashuv jarayoni zamonaviy madaniyatning ko'plab murakkab masalalariga, shu jumladan zamonaviy jamiyat a'zolarining suvereniteti muammosiga ta'sir qiladi. Tadqiqotchilar tomonidan qayd etilgan quyidagi faktga e'tibor qaratamiz. Iqtisodiyotning barcha sohalarining globallashuvi va “yangi, tobora kuchsizroq va kam resursli” siyosiy mustaqil “hududiy tuzilmalar” ning “qizg'in” bo'linishi o'zaro bog'liq hodisalar bo'lib, bir-birini bir-biriga bog'laydi va mustahkamlaydi”. Aftidan, bu zamonaviy madaniyatiga mafkuraviy shakllanishlar sohasida ham kuzatilmoqda. Asl shakllanishlar dominant massa yo'nalishidan “avtonomlashtirishga” moyildirlar. Yoshlar subkulturalari deb ataladigan holatda, bu muammo alohida soya oladi.

Axborotlashgan jamiyatning shiddat bilam o'zgarib borishi natijasida XX asrda globallashuv jarayonining tezlashishi va umumsayyoraviy sivilizatsiyaning shakllana boshlashi jahon mafkurasining xarakterini o'zgartirib yubordi. Ularning o'rnini bosadigan qudratli mafkuraning yo'qligi, geosiyosiy maqsadlarning o'zgargani esa bu g'oyalarning salbiy ta'sirini yanada kuchaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugun globallashuv jarayonining turli mamlakatlarda o'tkazayotgan ta'siri ham turlichay. Bu hol dunyo mamlakatlarining iqtisodiy, siyosiy, manaviy va boshka sohalardagi salohiyatiga bog'liq. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy tasirini kamaytirish





va ijobjiy tasirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chiqqurroq anglash, uning xususiyatlarini o'rganish lozim. Har bir ijtimoiy hodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bo'lgani kabi globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat o'tkir va keng qamrovli ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rishimiz mumkin. Bunda davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlar va ularning aloqalarining kuchayishi, turli texnologiyalarning rivojlanishi, o'zaro savdo aloqalari yaxshilanishi, turli qadriyatlarning uyg'unlashuvi, ekologik moammo, ofatlarda bir-birlariga yordam berishlari, buning hammasiga globallashuv sabab bo'lmoqda. Globallashuv jarayonlari mana shunday shittad bilan hayotimizga turli sohalar orqali kirish borayotgan bugungi kunda biz ilm-fan va texnologiyalarni chuqur o'zlashtirmasak, faqatgina tarimiz orqali maqtanib, ularni yanada rivojlantirish, bunda o'z hissamizni qo'shmasak, jahon miqyosida mamlakatimizning reytingi tushishi va ortda qolishi kuzatiladi. Shunday holga tushmaslik uchun mamlakatimizning Birinchi Prezenti I.Karimov aytganlaridek, "Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi" degan edi.

Globalashuvning salbiy tomonlariga quyidagilar kiradi:

-ekologik muammolar, ya'ni ozon teshiklari Yer haroratining oshib borishi, o'rmonlarining kamayishi, ya'ni cho'l va sahrolarning paydo bo'lishi, orol dengizi fojiasi va boshqalar;

- turli mamlakatlarda kasallik epidemiyasining tarqalishi;
- terrorizm va giyohvandlikning oshishi.

Globalashuvning ijobjiy tomonlariga quyidagilar kiradi:

-jahondagi xalqlarning tinchlik uchun kurashi;

-turli xil mamlakatlarning iqtisod-siyosat, fan-texnika, madaniyati, ta'lim va boshqa sohalardagi hamkorlik;

- yuqumli kasalliklar epidemiyalariga qarshi kurash.

Globalashuv natijasida migratsiya jarayonlarining faollashayotganligi ham sezilmoqda. Bu jarayon keltirib chiqarayotgan ayrim salbiy oqibatlar jumladan, transmilliy jinoyatlar (xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, xalqaro narkobiznes, odam savdosi va boshqalar)ning ko'payishi kuzatilmoqda. Xalqaro globallashuv insoniyat, mamlakat hayotining borgan sari yangi-yangi sohalarni egallab, uning natijasida hozirgi davrga qadar bo'lgan xalqaro tartibot, madaniyatlar, qadriyatlar yangi mano va mazmun bilan to'lib bormoqda. Ayniqsa, inson qadriga ham o'z ta'sirini kuchli o'tkazmoqda. Noqonuniy migratsiya oqibati sifatida mavjud bo'layotgan "odam savdosi"dek holat dunyo jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Jahon amaliyoti ko'rsatib turganidek, xalqaro globallashuv o'tish davrida turgan





davlatlardagi demokratiyalashuv jarayonlariga birdek ijobiy tasir ko'rsatmayapti. Aksincha, globallashuv ayrim jamiyatlarda demokratiyalashuv jarayonlirini murakkablashtirmoqda. Bundan tashqari, har bir jamiyat amaliyotidagi demokratiyalashuv jarayonlariga tasir qiluvchi tashqi omillar soni ham tobora ortayapti.

Globallashuv atrof-muhitga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu boshqa muammolar qatorida iste'molning ko'payishi, resurslarning kamayishi, issiqxona gazlari chiqindilari, o'rmonlarning kesilishi va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keladi. Globallashuv natijasida kelib chiqadigan iste'molning ortishi tabiiy resurslarga bosim o'tkazadi, bu esa ortiqcha foydalanishga, resurslarning tugashiga va ko'proq chiqindilarning paydo bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, globallashuv o'rmonlarni kesish va qishloq xo'jaligi kabi sanoat faoliyatining kuchayishi orqali o'rmonlarning kesilishiga, bu esa yashash muhitini yo'q qilishga va biologik xilma-xillikning yo'qolishiga olib keladi. Bunday muammolarni hal qilishda barqaror amaliyotlarni qabul qilish, qayta tiklanadigan energiyani targ'ib qilish, chiqindilarni boshqarishni yaxshilash kabilarni talab qiladi.

Xulosa. Hozirgi kunda global jarayonlar dunyoning barcha mintaqalariga chuqr ta'sir o'tkazmoqda. Iqtisodiy integratsiya, yangi raqamli texnologiyalar, iqlim o'garishi va birqancha ekologik atrof-muhit, migratsiya kabi omillar jamiyatning siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy hayotini tubdan o'zgartirmoqda. Bu o'zgarishlar bir tomonidan rivojlanish va o'sishga olib kelsa, boshqa tomonidan yangi muammolar va xavflarga sabab bo'lmoqda. Har bir davlat va jamiyat bunday global o'zgarishlarga moslashishi kerak bo'ladi. Globallashuv hech qachon tugamas va balki rivojlanuvchi jarayon bo'lib, u asrlar davomida rivojlanib bormoqda. Globallashuv, shubhasiz, ko'p foyda keltirgan bo'lsa-da, lekin uning turli jabhalarda salbiy ta'sirlari ham yetarlicha.

Ijtimoiy taraqqiyotning ob'ektiv tendensiyalari tahliliga asoslangan bir qator xulosalar globallashuvni birinchi navbatda qarama-qarshi manfaatlar sohasi va ma'lum bir urug' yoki davlatning maqsadli faoliyati, jumladan, boshqalarning manfaatlarini mensimaslik, hattoki qonuniy huquqlarini oyoq osti qilish deb qaraydiganlarning e'tirozlariga sabab bo'lishi mumkin. Bunday mulohazalar o'rinli bo'lib, globallashuv va uning oqibatlari haqida gap ketganda nazariy tadqiqotlarda ham, amaliy faoliyatda ham e'tiborga olinishi kerak.

Biroq, globalistikaning maqomi masalasida, shuningdek, uning predmeti va chegaralarini belgilashda biz sub'ektiv omil bilan emas, balki, qoida tariqasida, tadqiqotchilarining sub'ektivligi va g'ayrioddiyligi bilan shug'ullanishimiz kerak bo'lgan boshqa muammoni hal qilish haqida gap gapiramiz, ularning fikrlari global





jarayonlarning rivojlanishidagi ob'ektiv tendentsiyalarni tahlil qilish o'rnnini bosmasligi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Умаров Б. Глобаллашув зиддиятлари. – Тошкент: Маънавият, 2006. – 8-б.
- 2.Karimov.I.A''O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.-T.:2000-y.
- 3.Scientific Journal Impact Factor,Volume 1|ISSUE 2 ISSN 2181-1784
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MAFKURAVIY TAHIDLARNI
BARTARAF ETISH OMILLARI.
- 4.Central Asian Academic journal of scientific research issn:2181-2489
volume2|issue 6|2022 Globallashuv jarayonida yoshlari muammosi.

